

AFG'ONISTON ISLOM AMIRLIGIDA SIYOSIY LEGITIMLIK VA XALQARO TAN OLINMASLIK MUAMMOSI

Malikov Zuhridin Zayniddin o'g'li

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti
Amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi magistranti*

Nasimov Sunnatillo Valijonovich

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 2021-yildan keyingi Afg'oniston Islom Amirligining siyosiy legitimligi va xalqaro darajada davlat sifatida tan olinmasligi bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy legitimlik tushunchasining mazmuni, Amirlik hokimiyatining ichki legitimlikni shakllantirish asoslari hamda uning jamiyatdagi siyosiy vakillik bilan bog'liq muammolari yoritiladi. Shuningdek, Amirlik hukumatining xalqaro miqyosda keng tan olinmasligining asosiy sabablari, xalqaro hamjamiyatning inson huquqlari, siyosiy inklyuzivlik va xavfsizlik masalalariga nisbatan pozitsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro tan olinmaslikning Afg'oniston iqtisodiyoti, investitsiya muhiti, diplomatik munosabatlari va mintaqaviy hamkorligiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Amirlikning ichki legitimlikni asoslash mezonlari bilan xalqaro hamjamiyat tomonidan ilgari surilayotgan legitimlik mezonlari o'rtasida jiddiy tafovut mavjudligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Afg'oniston Islom Amirliigi, Tolibon, siyosiy legitimlik, xalqaro tan olinmaslik, xalqaro e'tirof, shariat, siyosiy inklyuzivlik, inson huquqlari, gender siyosati, xalqaro munosabatlar.*

KIRISH

2021-yil 15-avgustda "Tolibon" harakatining Afg'onistonda hokimiyatni egallashi natijasida mamlakatda Afg'oniston Islom Amirliigi boshqaruv tizimi qayta tiklandi va siyosiy hokimiyatning yangi modeli shakllandi [1]. Biroq real hokimiyatni qo'lga kiritish Afg'oniston Islom Amirliigiga avtomatik ravishda xalqaro-huquqiy maqom bermadi. Amirlik hukumati o'z hokimiyatini shariat ahkomlari, diniy qadriyatlar, tartib-intizom va davlat idoralari faoliyatining qayta tiklanishi orqali asoslashga intilmoqda. Xalqaro hamjamiyat esa siyosiy legitimlikni faqat hudud ustidan nazorat yoki kuch ishlatish imkoniyati bilan emas, balki inklyuziv boshqaruv, inson huquqlariga rioya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan ham bog'lamoqda [1].

Siyosiy legitimlik jamiyatning mavjud hokimiyatni ixtiyoriy ravishda tan olishi va uni qonuniy deb qabul qilishi jarayoni sifatida talqin qilinadi [2]. Barqaror siyosiy boshqaruv faqat majburlov apparatiga emas, balki fuqarolarning roziligi va hokimiyatni qonuniy deb qabul qilishiga ham tayanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Afg'oniston Islom Amirligining legitimlik modeli demokratik saylovlar yoki konstitutsiyaviy vakillikdan ko'ra g'oyaviy va diniy asoslar orqali shakllanayotganligi bilan ajralib turadi [66].

Amirlik o'zining ichki legitimlik bazasini, avvalo, shariat qoidalarini jamiyatning asosiy tartibga soluvchi kuchi sifatida belgilash, mamlakatda tinchlik va nisbiy xavfsizlikni ta'minlash hamda sobiq respublika davriga xos korrupsiya va siyosiy beqarorlikka barham berish bilan asoslashga harakat qilmoqda [3].

Biroq mazkur legitimlik asoslari Afg'oniston jamiyatining barcha qatlamlari tomonidan bir xil darajada qabul qilinayotganini aytish qiyin. Afg'oniston jamiyati etnik, qabilaviy va ijtimoiy jihatdan murakkab tarkibga ega bo'lib, mamlakatda pushtunlardan tashqari tojiklar, hazoralar, o'zbeklar va boshqa etnik guruhlar ham istiqomat qiladi. Shu sababli siyosiy vakillik masalasi Amirlikning ichki legitimligi uchun muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Qarorlar qabul qilish jarayonining asosan "Tolibon" harakatining tor doiradagi diniy-siyosiy rahbariyati qo'lida jamlanishi siyosiy inklyuzivlik masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Hukumat tarkibida keng siyosiy doiralarning yetarli darajada ishtirok etmasligi, ayollarning ijtimoiy hayotdan cheklanishi, sobiq siyosiy elitaning chetlashtirilishi va fuqarolik faollariga bosim o'tkazilishi ichki legitimlikning mustahkamlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda [3].

Shu bilan birga, xavfsizlik masalasi Amirlikning ichki legitimlikni shakllantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi [3]. 2021-yildan keyin keng ko'lamli harbiy to'qnashuvlarning kamayishi va jinoyatchilik ustidan nazoratning kuchayishi aholining ma'lum qismi tomonidan ijobiy baholanishi mumkin. Ko'p yillik qurolli mojarolardan charchagan aholi uchun tinchlik va nisbiy xavfsizlikning ta'minlanishi hokimiyatning ijtimoiy qabul qilinishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Biroq xavfsizlikning o'zi to'laqonli siyosiy legitimlikni shakllantirish uchun yetarli emas, chunki uzoq muddatli barqarorlik huquqiy kafolatlar, ijtimoiy adolat, iqtisodiy imkoniyatlar va fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ham talab qiladi.

Ichki legitimlik bilan bir qatorda Afg'oniston Islom Amirligining xalqaro darajada tan olinishi masalasi ham mamlakat boshqaruv tizimining eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [1]. 2021-yildan keyin aksariyat davlatlar Kobul bilan aloqalarni to'liq uzmagani bo'lsa-da, Amirlik hukumatini rasman tan olishga shoshilmadi. Natijada Afg'oniston Islom Amirligi xalqaro-huquqiy maqom nuqtayi nazaridan murakkab va noaniq vaziyatda qoldi.

Amirlik hukumatining xalqaro darajada keng tan olinmasligining bir nechta asosiy sabablari mavjud [4]. Birinchidan, hokimiyat umumxalq xohish-irodasi yoki konstitutsiyaviy mexanizm orqali emas, balki harbiy-siyosiy g'alaba natijasida qo'lga kiritildi. Ikkinchidan, yangi ma'muriyat tarkibida mamlakatdagi barcha etnik va siyosiy guruhlarining keng vakilligi ta'minlanmadi. Uchinchidan, ayollar ta'limi va bandligiga, OAV erkinligiga hamda inson huquqlariga qo'yilgan cheklovlar xalqaro hamjamiyat bilan munosabatlarni murakkablashtirmoqda. To'rtinchidan, Afg'oniston hududidan xalqaro terrorizm tahdidining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha berilgan va'dalarning bajarilishi ustidan xalqaro nazorat hamon muhim masala bo'lib qolmoqda.

Shunga qaramay, Amirlikning xalqaro darajada tan olinmaganligi uning boshqa davlatlar bilan amaliy aloqalarini to'liq to'xtatib qo'ymadi [5]. Xitoy, Rossiya, Eron, Pokiston, Qatar hamda Markaziy Osiyo davlatlari Amirlik bilan turli sohalarida pragmatik munosabatlarni saqlab kelmoqda. Bunday hamkorlik, avvalo, chegara xavfsizligi, savdo, tranzit koridorlari, energetika va migratsiya kabi amaliy masalalarni hal qilish ehtiyojidan kelib chiqmoqda. Biroq amaliy diplomatik muloqot va turli sohalaridagi hamkorlik Afg'oniston Islom Amirliги hukumatining de-yure, ya'ni rasmiy xalqaro tan olinganligini anglatmaydi.

2025-yil Afg'oniston Islom Amirligining xalqaro maqomi masalasida muhim diplomatik burilish bo'ldi [6]. Rossiya Afg'oniston Islom Amirliги hukumatini rasman tan olganini e'lon qilishi Amirlik uchun tashqi siyosatdagi muhim diplomatik yutuq sifatida baholandi. Biroq Rossiyaning mazkur qarori Amirlik atrofidagi xalqaro izolyatsiyani to'liq tugatmadi. Aksariyat davlatlar va xalqaro tashkilotlar rasmiy e'tirof masalasida ehtiyotkor pozitsiyani saqlab qolmoqda.

Xalqaro tan olinmaslikning oqibatlarini, avvalo, Afg'onistonning iqtisodiy boshqaruvi va moliyaviy tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda [7]. Bank tizimidagi cheklovlar, xalqaro moliyaviy operatsiyalardagi muammolar, sanksiyalar va tashqi yordamlarning qisqarishi davlat apparatining moliyaviy imkoniyatlarini zaiflashtirmoqda.

Respublika davrida davlat budjeti va ijtimoiy sohaning salmoqli qismi xorijiy grantlar va moliyaviy yordamlar hisobidan ta'minlangan bo'lsa, 2021-yildan keyin mazkur manbalarning qisqarishi yangi ma'muriyat oldiga jiddiy moliyaviy muammolarni qo'ydi. Natijada davlat xizmatchilariga ish haqi to'lash, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini saqlash hamda infratuzilmani rivojlantirish kabi vazifalarni bajarish murakkablashmoqda.

Xalqaro tan olinmaslik moliyaviy noaniqlik bilan birga investitsiya muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [7]. Xorijiy investorlar uchun siyosiy barqarorlik bilan bir qatorda xalqaro miqyosda tan olingan huquqiy kafolatlarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

Amirlik mamlakat ichida siyosiy nazoratni o'rnatgan bo'lsa-da, uning xalqaro maqomining noaniqligi yirik xorijiy kompaniyalarning uzoq muddatli investitsiya loyihalarida ehtiyotkorlik bilan harakat qilishiga sabab bo'lmoqda.

Biroq Afg'onistonning Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi geografik joylashuvi Amirlik uchun muayyan geoiqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratmoqda. O'zbekiston, Turkmaniston, Pokiston, Eron va Xitoy Afg'oniston hududi orqali savdo va tranzit loyihalarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lib qolmoqda. Shu sababli qo'shni davlatlar rasmiy tan olish masalasidan qat'i nazar, amaliy ehtiyojlar asosida Amirlik bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni davom ettirmoqda. Biroq bunday loyihalarining samarali amalga oshirilishi xavfsizlik va huquqiy kafolatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Inson huquqlari va ayniqsa gender siyosati Afg'oniston Islom Amirligining xalqaro legitimlikka erishish yo'lidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda [8].

Qizlarning ta'lim olishi, ayollarning mehnat qilishi va erkin harakatlanishiga qo'yilgan cheklovlar

Amirlik tomonidan diniy qadriyatlar va shariat talqinlari orqali asoslanmoqda.

Xalqaro hamjamiyat esa mazkur cheklovlarni inson huquqlarining buzilishi sifatida baholab, ularni xalqaro e'tirof masalasi bilan bog'lamoqda. Shu sababli gender masalasi

Amirlikning xalqaro diplomatik munosabatlarini rivojlantirish va rasmiy tan olinish jarayonidagi asosiy to'siqlardan biriga aylangan.

Erkin matbuot, fuqarolik jamiyati va siyosiy muxolifat faoliyatining cheklanganligi ham xalqaro hamjamiyat tomonidan tanqid qilinayotgan masalalardan hisoblanadi [8]. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda hukumatning legitimligi faqat ma'muriy institutlarning mavjudligi yoki hudud ustidan nazoratni amalga oshirish bilan belgilanmaydi.

Jamiyat bilan siyosiy muloqot mexanizmlarining cheklanishi va aholining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining pastligi hukumatning xalqaro legitimligini shakllantirish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

Shu sharoitda xalqaro tan olinmaslik masalasi Amirlik va xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi muzokaralarning asosiy muammolaridan biriga aylangan [9].

G'arb davlatlari va xalqaro tashkilotlar xalqaro e'tirof masalasini inson huquqlari va siyosiy inklyuzivlik talablari bilan bog'lamoqda.

Amirlik esa xalqaro tan olinishi va sanksiyalarning yumshatilishini iqtisodiy barqarorlik hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim sharti sifatida ko'rmoqda. Natijada tomonlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik saqlanib qolmoqda.

Xalqaro hamjamiyat uchun ham Afg'oniston masalasida murakkab siyosiy tanlov yuzaga kelmoqda [9].

Amirlikni shartsiz tan olish inson huquqlari va xalqaro mezonlarga nisbatan murosaga borish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Biroq Afg'onistonni mutlaq izolyatsiya qilish mamlakatdagi iqtisodiy va gumanitar muammolarni yanada chuqurlashtirib, mintaqaviy xavfsizlikka qo'shimcha tahdidlar yaratishi mumkin.

Shu sababli ko'plab davlatlar rasmiy e'tirofni keyinga surgan holda, pragmatik muloqot va shartli hamkorlik siyosatini davom ettirmoqda.

Afg'oniston Islom Amirligining xalqaro maqomi O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham alohida ahamiyatga ega.

Chegara xavfsizligi, suv-energetika resurslari, Trans-Afg'on koridori va ekstremizm xavfi mintaqada davlatlarini Kobul bilan muloqot qilishga undamoqda.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining Amirlik bilan hamkorligi uning rasmiy xalqaro tan olinganligini anglatmaydi, balki milliy va mintaqaviy manfaatlardan kelib chiqadigan pragmatik siyosiy yondashuvni ifodalaydi [9].

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, Afg'oniston Islom Amirligining siyosiy legitimligi ichki va tashqi darajalarda turli mezonlar asosida shakllanmoqda [9]. Ichki darajada Amirlik o'z hokimiyatini shariat, diniy qadriyatlar, xavfsizlik va tartibni ta'minlash orqali

asoslashga intilmoqda [1]. Xalqaro darajada esa undan siyosiy inklyuzivlik, inson huquqlariga rioya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish talab etilmoqda. Aynan ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi tafovut Amirlikning xalqaro tan olinishi yo'lidagi asosiy muammolardan birini tashkil etmoqda [9].

Amirlikning mamlakat hududi ustidan real siyosiy nazoratni amalga oshirayotgani uning davlat boshqaruvi imkoniyatlarini mustahkamlagan bo'lsa-da, bu holat xalqaro legitimlikka avtomatik ravishda olib kelmadi [66]. Siyosiy vakillikning cheklanganligi, inson huquqlari va gender siyosati bilan bog'liq muammolar hamda xalqaro-huquqiy maqomning noaniqligi uning xalqaro maydondagi mavqeini murakkablashtirmoqda [4]. 2025-yilda Rossiya tomonidan Amirlik hukumatining rasman tan olinishi muhim diplomatik o'zgarish bo'lgan bo'lsa-da, mazkur voqea xalqaro izolyatsiyani to'liq tugatmadi [6].

Shu sababli Afg'oniston Islom Amirligining uzoq muddatli siyosiy barqarorligi faqat hududiy nazorat va xavfsizlikni ta'minlash bilan emas, balki ichki siyosiy legitimlikni mustahkamlash, siyosiy inklyuzivlikni kengaytirish va xalqaro hamjamiyat bilan barqaror munosabatlarni shakllantirish qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi [2].

Amirlik va xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi legitimlik mezonlari bo'yicha tafovut saqlanib qolayotgan sharoitda, Afg'onistonning xalqaro tizimga qayta integratsiyasi murakkab va bosqichma-bosqich jarayon bo'lib amalga oshishi ehtimoli qolishi kutiladi [9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Crisis Group. Afghanistan Three Years after the Taliban Takeover. 2024. <https://www.crisisgroup.org/qna/asia-pacific/afghanistan/afghanistan-three-years-after-taliban-takeover>
2. Weber M. Economy and Society. Berkeley: University of California Press, 1978. – P. 212–216.
3. SIGAR. Why the Afghan Government Collapsed. Washington, D.C., 2022. – P. 21–29.
4. Human Rights Watch. World Report 2025: Afghanistan. 2025.
5. International Institute for Strategic Studies. Towards the Reintegration of Afghanistan into the International Community. Armed Conflict Survey 2024.
6. Reuters. Russia becomes first country to recognise Taliban government of Afghanistan. 4 July 2025.
7. World Bank. Afghanistan Development Update. April 2025.
8. United Nations Human Rights Council. Situation of Human Rights in Afghanistan: Report of the Special Rapporteur on the Situation of Human Rights in Afghanistan. A/HRC/57/22. 2024.
9. International Institute for Strategic Studies. Towards the Reintegration of Afghanistan into the International Community. Armed Conflict Survey 2024.